

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MAS'ULIYAT HISSINI
SHAKLLANTIRISHDA MTT VA OILA HAMKORLIGI.****Murodova Mubina Akramjon qizi***Qo'qon DU. Maktabgacha ta'lim
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
mubinamurodova095@gmail.com***ANNOTATSIYA**

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishda oila va MTT hamkorligining pedagogik ahamiyati ilmiy tahlil qilingan. Ota-ona va tarbiyachi o'rtasidagi yaqin hamkorlik bolalarning kundalik vazifalarga mas'uliyatli yondashish, intizomga rioya qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qanday ta'sir qilishi yoritilgan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, oilada qo'llaniladigan tarbiyaviy yondashuvlarni mtt'da pedagogik jarayon bilan birlashtirish mas'uliyat tuyg'usining barqaror rivojlanishiga olib keladi. Shuningdek, maqolada hamkorlikning amaliy shakllari, uning samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, oila va MTT o'rtasidagi hamkorlik maktabgacha ta'lim sifati oshirishining muhim omilidir.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, mas'uliyat hissi, oila, maktabgacha ta'lim muassasasi, hamkorlik, mustaqillik, pedagogik jarayon, ijtimoiy ko'nikmalar.

АННОТАЦИЯ

В статье научно обосновывается значимость сотрудничества семьи и дошкольного образовательного учреждения в формировании у дошкольников чувства ответственности. Анализируется влияние согласованных действий родителей и воспитателей на развитие у ребенка самостоятельности, соблюдение режима, выполнение ежедневных поручений и формирование социальных навыков. Подчеркивается, что интеграция семейного воспитания с педагогическим процессом ДОО способствует устойчивому становлению ответственного поведения. Кроме того, представлены практические формы сотрудничества и рекомендации по повышению его эффективности. Полученные выводы подтверждают, что тесное взаимодействие семьи и ДОО является важным фактором повышения качества дошкольного образования.

Ключевые слова: дошкольный возраст, чувство ответственности, семья, ДОО, сотрудничество, самостоятельность, педагогический процесс, социальные навыки.

ABSTRACT

This article scientifically examines the importance of collaboration between families and preschool institutions in developing a sense of responsibility among

preschool-aged children. The study evaluates how coordinated efforts of parents and educators support children in completing daily tasks, following routines, making independent decisions, and acquiring essential social skills. The integration of family upbringing with preschool pedagogical activities is shown to promote stable and long-term development of responsible behavior. The article also provides practical forms of cooperation and recommendations for improving collaborative practices. The findings indicate that strong family–preschool partnerships significantly enhance the overall quality of early childhood education.

Keywords: preschool age, responsibility, family, preschool institution, collaboration, independence, pedagogical process, social skills.

KIRISH.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, oilaviy munosabatlar va ta'lim tizimidagi islohotlar sharoitida barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, shaxs kamolotida bolalik davrining, xususan, maktabgacha yoshning tutgan o'rnini beqiyosdir. Bu bosqichda bola shaxsining asosiy axloqiy sifatlari – mustaqillik, ijtimoiy faollik, javobgarlik va mas'uliyat hissining shakllanishi boshlanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirish nafaqat tarbiyaviy ehtiyoj, balki ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatida ham e'tiborga loyiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"¹gi qarorida "Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning shaxs sifatida shakllanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy-madaniy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy shakllanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilish lozim"ligi ta'kidlangan.

Bola tug'ilgan kundan boshlab, maktabga borguniga qadar bo'lgan davrda har tomonlama yetuk, barkamol etib tarbiyalash qonuniyatlarini o'rganish maktabgacha ta'lim pedagogikasining asosiy mavzusidir. Bu pedagogika sohasida maktabgacha ta'lim muassasalari va oilaning tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi birligini, maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab ishidagi aloqadorlikni, bolalarni maktabda o'qishga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" // Lex.uz huquqiy axborot portali

tayyorlashni ta'minlab, ijtimoiy sharoitda tarbiya va ta'lim berish ishlarining vazifalarini, tamoyillarini, mazmunini, metodlarini, shakllarini va uni tashkil etishni ishlab chiqdi. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi pedagogika fanlar tizimida uning ajralmas qismi sifatida shakllandi²

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Ko'plab pedagog va psixolog olimlar maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissining shakllanishini tadqiq qilishgan. L.S. Vygotskiy³ bolalarning psixik rivoji va ijtimoiy ko'nikmalarining o'zaro bog'liqligini, shuningdek, rivojlanishning eng yaqin zonasida faoliyat olib borish ularning mas'uliyatini rivojlantirishda muhim ekanligini ta'kidlaydi.

K.K. Platonov⁴ shaxsning psixologik tuzilmasi va motivatsiya tizimi orqali bolalarning o'z harakatlariga mas'uliyat bilan yondashishini shakllantirishga e'tibor qaratadi. Bolalarga jamiyatga moslashishda va yoshga doir topshiriqlar berilganda mas'uliyat bilan yondashtirish uchun bir qator usul va metodlar keltirib o'tgan.

A.S. Makarenko⁵ va A.V. Suxomlinskiy⁶ pedagogik yondashuvlar orqali bolalarni vazifalarni mustaqil bajarishga va ijtimoiy majburiyatni anglashga o'rgatishning samarali usullarini o'rganishgan. Bundan tashqari ular har bir yosh davrlarida bajariladigan ishlar ularning yoshiga mos tarzda tashkillanishi kerakligini ta'kidlagan.

F.R. Qodirova⁷ bolalarning axloqiy fazilatlarini, burch va mas'uliyat hissini shakllantirishda oilaning va pedagogik muhitning ahamiyatini yoritadi. R. Yusupova esa mas'uliyatni shakllantirish jarayonida tarbiyaviy faoliyatning tizimlilik va rejalashtirish jihatlari tahlil qiladi. Shodmonova esa bolalarning psixik rivojlanishida metodik yondashuvlarning rolini ko'rsatadi.

L.A. Ropembskaya maktabgacha yoshdagi tarbiyadagi oilaviy hamkorlik va tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish bolalarning mas'uliyat hissini rivojlantirishda

² Maktabgacha pedagogika. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. Tafakkur nashriyoti, Toshkent 2019. 10 bet.

³ Vygotskiy, L.S. Psixologiya razvitiya rebyonka. Moskva, 2004, 241-b.

⁴ Platonov, K.K. Chelovek i psixologiya. Moskva: Nauka, 1986, 102-b.

⁵ Makarenko, A.S. Pedagogik asarlar to'plami. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1988.

⁶ Suxomlinskiy, A.V. Yurakni bolalarga beraman. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1976

⁷ Qodirova, F.R. Ma'naviyat asoslari. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010, 85-b.

samarali ekanligini ta'kidlaydi. D. Abdurahimova⁸ milliy qadriyatlar va xalq og'zaki ijodi orqali mas'uliyat hissini shakllantirish metodikasini o'rganadi.

Z.N. Borisova⁹ bolalarning mehnat vazifalariga mas'uliyatini rivojlantirishni tahlil qilgan; unga ko'ra, mustaqil ish va topshiriqlarga munosabat bolalarning shaxsiy mas'uliyatini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Umuman olganda, tahlil qilingan olimlar ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissi pedagogik muhit, oilaviy tarbiya va faoliyat turlarini rejalashtirish orqali samarali shakllanishi ko'rsatiladi.

METODLAR.

Mazkur tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirish jarayonini aniqlash va baholashga qaratildi. Tadqiqotda kompleks yondashuv asosida nazariy va empirik metodlardan foydalanildi. Nazariy tahlil jarayonida mas'uliyat hissining pedagogik va psixologik jihatlari yoritilgan ilmiy adabiyotlar o'rganilib, tadqiqotning konseptual asoslari belgilandi.

Empirik bosqichda kuzatish, suhbat va pedagogik tajriba metodlari qo'llanildi. Kuzatishlar maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning kundalik mashg'ulotlari va o'yin faoliyati jarayonida olib borilib, ularning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi, javobgarlikni his etish darajasi va jamoaviy faoliyatdagi xulq-atvori baholandi.

Suhbatlar tarbiyachilar hamda ota-onalar bilan o'tkazilib, bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishda oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligining mavjud holati aniqlashtirildi. Pedagogik tajriba jarayonida bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olingan holda jamoaviy o'yinlar, mehnat topshiriqlari va kundalik majburiyatlar tashkil etildi. Tajriba davomida bolalarning mas'uliyat hissida o'zgarishlar muntazam ravishda qayd etildi. Olingan ma'lumotlar tahlil, taqqoslash va umumlashtirish metodlari asosida qayta ishlanib, tadqiqot natijalari tizimlashtirildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirish jarayonida oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi hamkorlik muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Dastlabki kuzatishlarda bolalarning ko'pchiligida topshiriqlarni bajarishda yetarli mustaqillik shakllanmagani, vazifalarni oxiriga yetkazmaslik holatlari mavjudligi aniqlandi.

⁸ Abdurahimova, D. Xalq og'zaki ijodi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent, 2017, 48–50-b

⁹ Borisova, Z.N. Formirovanie otvetstvennogo otnosheniya k trudovym porucheniya u detey doskol'nogo vozrasta. Moskva: Pedagogika, 1985, 42–44-b.

Pedagogik tajriba jarayonida jamoaviy faoliyat va mehnat topshiriqlarini tizimli tashkil etish natijasida bolalarda vazifalarni mustaqil bajarishga bo'lgan intilish kuchaydi. Bolalar topshiriqlarni bajarishda javobgarlikni his eta boshladi, jamoaviy ishlarda faolroq ishtirok etdi.

Ota-onalar va tarbiyachilar o'rtasidagi hamkorlik kuchaytirilgan sharoitda bolalarning topshiriqlarga munosabati barqarorlashgani, o'z majburiyatlarini anglash va ularga mas'uliyat bilan yondashish darajasi oshgani kuzatildi. Suhbatlar natijalari ham bolalarda mas'uliyat hissining shakllanishida yagona tarbiyaviy yondashuv muhim ekanligini tasdiqladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligi asosida tashkil etilgan pedagogik faoliyat bolalarda mas'uliyat hissining samarali shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi.

MUNOZARA.

Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirish jarayoni pedagogik muhit va oilaviy tarbiya bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. Kuzatilgan ijobiy o'zgarishlar bolalarning topshiriqlarni mustaqil bajarishi va jamoaviy faoliyatda faol ishtirok etishi orqali namoyon bo'ldi. Bu holat bolalarda mas'uliyat hissi faoliyat jarayonida shakllanishini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar bolalar rivojlanishida ijtimoiy muhitning ahamiyatini ta'kidlovchi pedagogik va psixologik yondashuvlar bilan mos keladi. Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi uyg'un hamkorlik bolalarda barqaror xulq-atvor va mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, pedagogik tajriba jarayonida jamoaviy o'yinlar va oddiy mehnat topshiriqlarining qo'llanilishi bolalarda javobgarlikni anglash, o'z harakatlarini boshqarish va ijtimoiy qoidalarga rioya qilish ko'nikmalarini rivojlantirdi. Bu esa mas'uliyat hissining faqat nazariy tushuncha emas, balki amaliy faoliyat orqali shakllanishini ko'rsatadi.

Natijalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, agar ota-onalar va tarbiyachilar tomonidan bolaga qo'yiladigan talablar bir-birini to'ldirsa va izchil bo'lsa, bolalarda mas'uliyat hissi samaraliroq shakllanadi. Aksincha, tarbiyaviy yondashuvlardagi nomuvofiqlik mas'uliyat hissining rivojlanishini sekinlashtirishi mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishda oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligini kuchaytirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

XULOSA.

Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirish murakkab va uzluksiz pedagogik jarayon ekanligini ko'rsatdi. Bu

jarayonda bolaning kundalik faoliyati, jamoaviy o'yinlari hamda oddiy mehnat topshiriqlari muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, bolalarda mas'uliyat hissining samarali shakllanishi ko'p jihatdan oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi hamkorlik darajasiga bog'liq. Tarbiyachilar va ota-onalar tomonidan bolaga qo'yiladigan talablarning uyg'unligi, vazifalarni izchil va tushunarli tarzda tashkil etish bolalarning o'z majburiyatlarini anglashiga xizmat qiladi.

Pedagogik tajriba jarayonida jamoaviy faoliyat va yoshga mos topshiriqlarni tizimli tashkil etish bolalarda mustaqillik, javobgarlik va o'z harakatlariga mas'uliyat bilan yondashish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berdi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishda oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, pedagogik jarayonni maqsadga yo'naltirilgan va izchil tarzda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. "O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019 yil 8 may.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", PQ-4312-son, 2019 yil 8 may.
3. Vygotskiy, L.S. Psixologiya razvitiya rebyonka. — Moskva, 2004. — 241 b.
4. Platonov, K.K. Chelovek i psixologiya. — Moskva: Nauka, 1986. — 102 b.
5. Makarenko, A.S. Pedagogik asarlar to'plami (5 jildlik). — Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1988.
6. Suxomlinskiy, A.V. Yurakni bolalarga beraman. — Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1976.
7. Qodirova, F.R. Ma'naviyat asoslari. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. — 85 b.
8. Yusupova, R. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2007. — 42 b.
9. Shodmonova, Sh. Pedagogik psixologiya. — Toshkent: O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 2005. — 67 b.
10. Abdurahimova, D. Xalq og'zaki ijodi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslari (ped. fan. nomz. diss.). — Toshkent, 2017. — 48–50 b.
11. Karimova, M., Qodirova, F. Maktabgacha pedagogika (o'quv qo'llanma). — Toshkent: O'qituvchi, 2021.
12. UNICEF. Early Childhood Development and Parenting Practices. — New York, 2021.